



BOLALARNI MAKTAB TALIMIGA TAYYORLASHDA DIAGNOSTIK TIZIMNI METODIK TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi

University of Business and Science

Nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya mazmunining bosh bo'g'ini bolalarning ijtimoiy ongi, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish hamda rivojlantirish, Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida diagnostik tizimni metodik takomillashtirishniung zamonaviy yondoshuvlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik diagnostika, maktabgacha ta'lim, faoliyat, jarayon, yondashuv, o'yin, ta'lim-tarbiya, idrok, tafakkur, qobiliyat, didaktik topshiriq.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash tizimini takomillashtirishning moddiy-texnika bazasi hamda nazariy-metodologik asoslari bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar yaratildi. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-sonli Qarorida "...bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi" [1] dolzarbligi ta'kidlab o'tilgan bo'lsa, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da "...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish" [2] masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Maktabgacha talimda pedagogik diagnostik faoliyatni rivojlantirish muammosi o'qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko'rib chiqilgan. Tanlangan mavzu yo'nalishidagi olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarni tahlili natijalariga ko'ra bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik diagnostikasi muammosi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi aniqlandi.



Pedagog olimlar SH.SHodmonova, S.Annamuratova, O.To'raeva, F.Qodirova, SH.Sodiqova, I.Valixo'jaevalar bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimni ishlab chiqqanlar.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash texnologiyasi muammosi yuzasidan olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida bolaalarni faoliyatga yo'naltirish, ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish, bu jarayonda xalq pedagogikasidan unumli foydalanish, o'z-o'zini tarbiyalash nuqtai-nazaridan masalalari yoritilgan bo'lib, bu masalalar pedagog va psixolog olimlar - D.A.Abduraxmonova, S.U.Bichurina, L.Zarillo, M.A.Kaardakova, K.X.Raximova, K.Toshpo'latov, K.Toshboeva, V.A.Kan-Kalik, M.K.Tutushkina, P.A.SHaver, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, R.Z.G'aynutdinov, A.Jabborov, M.Karimovalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish masalalari borasida bir qator olimlar F.Qodirova, M.Rasulova, Z.Ibragimova, L.CHabrova, M.Nurmatova va boshqalar Maktabgacha ta'lim tashkiloti "Kontseptsiyasi", "Maktabgacha boladagi bolalarni ta'lim-tarbiyasiga quyiladigan davlat talablari", "Ilk qadam" davlat dasturi kasbiy me'yoriy hujjatlarining yangi avlodini yaratganlar.

Diagnostika (yunon tilida «dia»- shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi)-o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtai nazaridan qarasa, kasallik belgilari va ularni kelib chiqish sabablari to'g'ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato tashxis esa faqat shifokorlarning aqliy harakatini yo'qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana a'ozolari salomatligi to'g'risida aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog'liqqa ham bevosita aloqadordir.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o'rta maxsus o'quv maskanlari o'qituvchilari ko'pincha o'quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning echimlarini topishga o'rinishmaydi. O'quvchilar va bolalarning aqliy rivojlanishlari ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning



tarbiyalanganlik darajasini tao'xis qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Maqolada pedagogik diagnostik faoliyatni rivojlantirish orqali bolalarni maktabga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari, maktabgacha ta'limda pedagogic jarayonni tashkil etishda pedagog-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyati, maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi xususida so'z yuritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya mazmunining bosh bo'g'ini bolalarning ijtimoiy ongi, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgandir. Bu o'rinda bolalarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlari, muassasa joylashgan geografik muhit, tolerantlik tamoyillari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi hamda demografik vaziyat inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim-tarbiya mazmunini zamon talablariga mos ravishda shakllantirishda dunyodagi globallashuv jarayoni tamoyillari, ilg'or xorijiy tajribalar, mutaxassis olimlarning ilmiy-nazariy, metodik xarakterdagi g'oyalari va qarashlariga tayaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati mazmunida, albatta, pedagogik va psixologik qonuniyatlar, tamoyillar, shart-sharoitlar, omillar inobatga olinmog'i zarur. Bu borada bolalar ongiga singdiriladigan didaktik materiallarning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, soddaligi, ta'sirchanligi, qiziqarliligi, bolalar yoshiga mosligi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash darajasi, milliy mentalitet xususiyatlarining mavjudligi va boshqalarning ta'siri pedagogik diagnostika asosida e'tiborga olinadi.

Gumanistik psixologiya va pedagogika g'oyalariga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – ta'lim oluvchining fikrlash va faoliyat strategiyasini inobatga olgan holda uning o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunda tarbiyachi ko'p jihatdan bolalarning mustaqil bilish faoliyatining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Bu tamoyil bolalarning izchil fikr yuritishi, aqliy va amaliy operatsiyalari hamda harakatlarining izchilligini ta'minlashga qaratilgan. Pedagogik amaliyotda mazkur yondashuv asosida variativ dasturlar, tabaqalashtirilgan mashg'ulotlar, ijodiy uy vazifalari va mustaqil ta'limda keng qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonining uchta funktsiyasiga o'xshashlik bilan diagnostikaning asosiy yo'nalishlari ajratiladi: ta'lim, o'qitish va tarbiya.

- Diagnostika yordamida ta'lim sohasida shaxsning rivojlanish darajasi, uning



dunyo haqida, undagi o'rni to'g'risida umumlashtirilgan bilimlarning barqaror tizimini egallashi aniqlanadi, ya'ni. so'zning keng ma'nosida bilim.

- Ta'lim sohasida ular ta'lim muassasasida olingan aniq bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasini tashxislashadi.

- Ta'lim sohasida diagnostika inson yoki o'quvchilar guruhining hissiy, axloqiy fazilatlarining shakllanish darajasini ochib beradi.

Pedagogik diagnostika ob'ekti o'quv muassasasi talabasi yoki talabasi, shuningdek ularning jamoasi. Diagnostikani o'tkazish uchun o'rganilayotgan odam va uning oilasi, o'quvchining jismoniy va ruhiy salomatligi, uning bilim qobiliyatlari, xulq-atvori, motivatsion sohasi va boshqalar to'g'risida demografik ma'lumotlar yig'iladi. Pedagogika fani diagnostika usullarining keng doirasini taklif etadi: kuzatish, so'roq qilish, test o'tkazish, suhbatlar, ijodiy ishlarni tahlil qilish shular jumlasidandir.

XULOSALAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mazkur topshiriqlar tajriba-sinov ob'ektlarida qo'llanildi. Garchi tarbiyachi-pedagoglar tomonidan mazkur topshiriq murakkab va bolalar uchun qiyinchilik tug'diradi degan ilk xulosaga kelingan bo'lsa-da, bir necha marta takrorlash va shug'ullanish natijasida bolalar tomonidan ijobiy fikrlarning bildirilishi orqali samarador ekanligi o'z tasdig'ini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.12.2019 yil, O'RQ-595-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020 y., 07/20/4555/4257-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.



4. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yilgan tavlat talablari. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim vazizring 2018 yil 18 iyundagi 1-mh-son [Buyrug'iga](#) ilova . <https://nrm.uz>.
5. "Bolajon" takomillashtirilgan tayanch dasturi. Toshkent 2016 yil.
6. Sodiqova SH. Maktabgacha pedagogika. To'ldirilgan qayta nashr. –T.: TDPU, 2017 y.
7. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.
8. Xasanboeva O. U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2012 y.
9. Bikbayeva N.U., Ibroximova 3.I. Qosimova X.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. T.1995 y.